



KREDIT MODUL TIZIMIDA TALABALARNI MUSTAQIL IZLASHGA QIZIQTIRISH OMILLARI

Sultonova Lola Botirovna

Farmasevtika ta'lim va tadqiqot instituti
Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrası katta o'qtuvchisi.
<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7844546>

ARTICLE INFO

Received: 09th April 2023

Accepted: 18th April 2023

Online: 19th April 2023

KEY WORDS

Kredit modul tizimi, mustaqil ta'lim, auditoriya darslari, o'ziga ishonch, bilim, malaka, ko'nikma, zamonaviy kadr, konsepsiya, o'quv qo'llanmalari, darsliklar, o'quv adabiyotlari, internet malumotlari.

ABSTRACT

Ushbu maqolada bugungi kun oliy ta'lim tizimining maqsadi, faoliyat tizimi yoritilishi bilan birga talabalarni mustaqil izlashga qiziqtirish omillari yoritib berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847 sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" da oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustvor yo'nalishlari belgilab berilgan bo'lib, unda oliy ta'lim tizimi yetishtirib berayotgan kadrlar zamonaviy bilim va malakaga ega bo'lish bilan bir qatorda mustaqil fikrlaydigan kadr bo'lishi kerakligi nazarda tutilgan.¹ Ushbu farmon asosida yurtimizdagi ko'plab OTMLar o'qitishning "Kredit modul" tizimiga o'tmoqda. Bu tizimda o'qitishning asosini 60 % qismini mustaqil ta'lim tashkil etadi. Shu o'rinda mustaqil ta'lim deganda avvalo nima tushuniladi degan savol kelib chiqishi tabiiy albatta.

Mustaqil ta'lim bu talabaning auditoriya darslaridan tashqarida o'zining mustaqil bilim olishi, fan doirasida qo'shimcha materiallar (o'quv qo'llanmalari, darsliklar, o'quv adabiyotlari, internet malumotlari) bilan ishlashi asosida dunyoqarashini kengaytirishi va shu asosida o'zining shaxsiy fikr va muloxazalariga ega bo'lishi tushuniladi. Yana bunga qo'shimcha ravishda shuni aytish mumkinki, talaba didaktik topshiriqlarni mustaqil ravishda bajarishga, o'qishga qiziqtirishga va muayyan fan sohasida bilimlarni oshirishga yo'naltirilgan. Talabani mustaqil ishi mantiqiy fikrlashni, ijodiy faollikni, o'quv materiallarini o'zlashtirishda tadqiqotchilik yondashuvini shakllantirishga imkon beruvchi amaliy topshiriqlarni bajarish bilan bo'g'liq bo'ladi.

¹ S.Musamedov "Talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish" metodik qo'llanma Toshkent 2023



Bugungi kunda ta'lim tizimida mustaqil ishning o'ri va axamiyati beqiyos. Chunki Oliy ta'lim tizimining o'z oldiga qo'ygan asosiy vazifalardan biri mutaxassisni o'z - o'zini rivojlantirishga, mustaqil ravishda bilimni ko'paytirishga, xar bir voqea va xodisalarga shaxsiy fikr va muloxazalar bilan yondashaoladigan ijodiy shaxsni shakllantirishga yo'naltirishdan iborat, va albatta ushbu jarayonda tayyor bilimlarni auditoriya darslarida professor-o'qituvchilar tomonidan talabalarga yetkazish kamlik qiladi.²

Talabalarining mustaqil ishlari ularda fanga nisbatan jiddiy qiziqish, majburiyat va mas'uliyat bo'lganidagina amalga oshishi mukmin. Bunday asosiy jiddiy omil kelgusidagi kasbiy faoliyatida kadrni (bo'lajak mutaxassisni) samarali kasbiy faoliyatga tayyorlashdan iborat bo'lishi kerak. Talabalarni mustaqil ishlarini faollashtirishga, ularga turtki (motivatsiya) berishda bir qator o'ziga xos omillar mavjud bo'lib, bu omillar to'laligicha dars beruvchi professor-o'qituvchilarning pedagogik professional qobiliyatlari va mahoratlariga, talabalarga berayotgan tushuncha va topshiriqlarining samaradorligiga, berilgan barcha topshiriqlari ijrosini qay darajada qabul qilishiga va albatta talabaning mustaqil izlanishiga nisbatan munosib baho berilishiga bog'liqdir.

Demak talabalarni mustaqil ishlarini faollashtirishga:

Bajarilayotgan ishlarning foydaliligi. Ya'ni bajarilayotgan ishning zaruriyati va ahamiyati to'laligicha yoritilib berilishi kerak, bunda talaba o'z ishi natijalari ma'ruza, seminar, amaliy yoki laboratoriya ishlarida, metodik qo'llanmalar tayyorlash yoki maqolalar yozishda kimgadur kerakli va sifatli manbaa bo'lib xizmat qilishini anglasa o'z mustaqil ishiga nisbatan bo'lgan munosabati keskin tarzda ijobiy tomonga o'zgaradi;

Bilimlarni nazorat qilishda qiziqtiruvchi omillarni foydalanish. Bunda testlar, noanaaviy shakllaridan foydalanish. Bu kabi omillar tegishli xolatlarda musobaqa shaklida, bellashuvlar asosida o'tkazilishi va talabalarda o'zgalardan o'zib ketishga va ijobiy natijani qo'lga kiritishga undashi kerak. Aynan shu kabi omillar talabaning o'zida o'z ustida ishlashga ixtiyoriy ravishda majbur qiladi.

Talabaning ijodiy faoliyatidagi ishtiroki. Bu omil turlicha ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Aytaylik kafedralar tomonidan olib boriladigan ilmiy ishlar, ilmiy faoliyat bilan shug'illanuvchi doktorantlarga ularning ilmiy ishida ko'maklashish maqsadida ularga yordamchi sifatida birlashtirish, badiiy ijod ishlarida ularning shaxsiy fikr va taklif berishga yo'naltirish kabilar;

Talabaning ilmiy faolligini oshirish. Bunda fan olimpiadalari, amaliy ishlar tanlovida ishtirok etishi, talabalar mas'ulligida turli tanlovlar o'tkazilishi va bu borada yakuniy xulosalashni ularning ixtiyoriga topshirish;

Vaqtning to'g'ri taqsimlanishi. Bunda mustaqil ishlarni tashkil etishning mazmuniga va shakliga qarab o'quv jarayonida va undan tashqarida xam yetarlicha vaqtning ajratilishi xam mustaqil ishlarning samaradorligi oshirishga xizmat qiladi.

Talabaning mustaqil ta'limi asosida o'quv jarayonini tashkil etishning ikkita asosiy yo'nalishi mavjud bo'lib ular;

1) Auditoriya darslarida mustaqil ta'limni rolini oshirish. Buning uchun professor-o'qituvchilardan auditoriya mashg'ulotlarini tashkil etishda talabalarining yuqori darajadagi

² Sh.Yo'ldashev Talabalarining mustaqil ta'limining



mustaqilligi va tayyorgarligi sifatini ta'minlaydigan metodika va shakllarni ishlab chiqishni taqazo etadi.

2) Talabalarni auditoriyadan tashqari vaqtlarda barcha yo'nalishlar bo'yicha mustaqil ishlar bo'yicha faolliklarini oshirish.

Ikkinchi yo'nalishni tashkil etishda bir qator muammo va kamchiliklar bo'lib, ular shunda namoyon bo'ladiki, mustaqil ishlarni bajarishga ko'pgina talabalar qatori ayrim professor-o'qituvchilar xam mustaqil ishni to'g'ri tashkil etishga tayyor emasligida. Bu esa talabalarni ishni to'g'ri tashkil etishga yoki mustaqil izlanishga majbur etaolmaslik yoki qiziqтираolmaslik kabi xolatlarni keltirib chiqarmoqda. Bu kabi vaziyat ko'pgina xollarda kasbiy yoki psixologik yo'nalishda va information ta'minot yo'nalishida namoyon bo'ladi. Information ta'minot talab darajasida bo'lmaydi va buning natijasida samaradorlikni pasayib ketishi kuzatiladi. Bundan tashqari, talabalarda nutq madaniyatini yaxshi rivojlanmaganligi va talabalarda o'ziga bo'lgan ishonchning yo'qligi, ularda nutq madaniyatining yaxshi rivojlanmaganligini xam ularning mustaqil ta'limda faol mustaqil ta'limda ishtirok etmasliklariga sabab bo'ladi.

O'qituvchi rahbarligida talabaning mustaqil ishi esa - o'qituvchi va talabaning birgalikda biror ishni mustaqil tarzda amalga oshirishga nisbatan aytiladi. Bu kabi ishlarga didaktik o'yinlar, taqdimot, keys tuzish kabilar shaklida olib boriladi.³ Xar bir o'qituvchi rahbarligida talabaning mustaqil ishi uchun muayyan masalalarni aniqlashtirishga, ularni kengaytirishga, u yoki bu vaziyatlarni tahlil qilish ko'nikmalarini xosil qilishga, masala ishlashga yordam beradigan materiallar tayyorlab qo'yilishi zarur.

³ U.Muxtorov Xorijiy tajriba va amaliyot o'quv metodik qo'llanma